

**NUTQ MADANIYATI VA UNING BUGUNGI KUNDAGI DOLZARB
MUAMMOLARI, NOTIQLIK SAN'ATI**

Rajabboyeva Farangiz Rustam qizi

O'zbekiston Jahon tillari universiteti

Xorijiy til va adabiyoti 2-fakulteti 1-bosqich talabasi

farangizrajabboyeva5@gmail.com

Annotatsiya: *Mazkur maqolada nutq madaniyati va uning o'zbek tilshunosligida bugungi kundagi dolzarb muammolari, nutq madaniyatining tilshunoslik sohasidagi adabiy til me'yorlari va nutqda uchrashi mumkin bo'lgan xatolar va kamchiliklar, notiqlik san'atining asosiy shartlari borasida so'z yuritiladi.*

Kalit so'zlar: *Jargon, vulgar, nutq madaniyati, pedagog, registratura, plan, grafik, nachalstvo, terapevt, nachalnik, spravka, obyom, razresheniye, talonchik, srok, prikaz.*

Аннотация: *в этой статье обсуждаются текущие вопросы в узбекской лингвистике, ошибках и недостатках на языке либраря в основных условиях выступления на публичные выступления.*

Ключевые слова: *Жаргон, просторечие, культура речи, педагог, регистратура, план, график, начало, терапевт, начальникник, справка, объём, разрешение, мародер, срок, приказ.*

Annotation: *This article is discussing current issues in the speech culture and its Uzbek linguistics, errors and shortcomings in literary language norms and errors and shortcomings in speech, basic conditions of public speaking.*

Key words: *Jargon, vulgar, speech culture, pedagog, registration, plan, graphic, nachalstvo, terapevt, nachalnik, spravka, obyom, razresheniye, talonchik, srok, prikaz.*

So'nggi yillarda mamlakatimizda o'zbek tilining o'rni va ahamiyati barcha sohalarda taraqqiy etib bormoqda. Ayniqsa, O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so'ng o'zbek tilini butun jahon miqyosida faol muloqot vositasiga aylantirish hamda uni davlatning ichki va tashqi munosabatlarida rivojlangan tillar darajasiga chiqarish katta maqsad qilib qo'yildi. Nutq madaniyati shaxsning ma'naviy qiyofasini belgilab beruvchi ko'rsatkichlardan biridir. U insonning o'z fikrini aniq, tushunarli va odob doirasida bayon qila olishidir. Ammo bilamizki, hozirgi kunda yoshlar o'rtasida so'zlashuv madaniyatida qator muammolarga duch kelmoqdamiz. Ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlarda yoziladigan matnlar, qisqartmalar, jargon va vulgar so'zlar nutqimizga salbiy ta'sir ko'rsatmasdan qolmayapti. Ayni vaqtda yurtimizdagi nutq madaniyatida yuzaga keladigan mana shunday dolzarb muammolarni bartaraf etish bo'yicha fikr-mulohazalar yuritilmoqda, ushbu muammolarga qanday yechim topish mumkinligi bo'yicha atroflicha o'rganilmoqda. Universitetlarda nutq madaniyatiga oid fanlar ham yo'lga qo'yilganligi uning talabalar va o'qituvchilar o'rtasidagi ravon muloqotning yaxshilanishiga yorqin dalil bo'la oladi. Nutq madaniyati

nafaqat pedagog va talaba o'rtasida, balki shifokor va bemor, yozuvchi, shoir, san'atkor umuman olganda har qanday yo'nalishda va kasb turlarida muhim rol o'ynaydi. Shuning uchun ham yoshlarning jamiyatda o'z o'rinlarini topish, muvaffaqiyatga erishishida hamda kasbiy sohalarida o'z fikrini izchil bayon qila olish qobiliyatini shakllantirish maqsadida qator fikrlar ko'rib chiqilmoqda.

Ma'lumki, mustaqillikka erishgunga qadar biz Sobiq SSSR tarkibida bo'lganmiz va mana shu bir asrlik mustamlaka davomida rus tili o'zbek tiliga o'z ta'sirini o'tkazmasdan qolmadi. Ularning maqsadi, albatta, davlatning madaniyati, uning boy tarixi, o'z ona tilini asta-sekinlik bilan yo'q qilish va o'z milliy qadriyatlarini unutishga olib kelish bo'lgan. Afsuski, bunday til me'yorlariga zid bo'lgan so'zlar hali ham butunlay yo'qolmagan. Rus tili ta'siriga uzoq davr mobaynida berilish natijasida bu til hayotimizga shu darajada singib ketgan ediki, hatto bu hol jiddiylashib bugungi kunda o'z millatimiz vakillariga ham o'zbek tilini, o'z ona tilida tushunarli va ravon so'zlashni o'rgatish kerakligini ko'rsatib turibdi. Shu bois nutq madaniyati bilan bog'liq masalalarga umummilliy muammo sifatida jiddiy munosabatda bo'lish kerakligi bugungi kunda isbot talab qilmaydi. So'zlaganda adabiy til me'yorlariga amal qilmaslik nafaqat so'zlashuv nutqida, balki keyingi yillarda yaratilgan bir qator asarlarda, masalan, O'tkir Hoshimovning "Ikki eshik orasi" asarida ko'rishimiz mumkin:

1) *Shifoxona xodimlari: "Registaturaga borib talonchik oling, keyin terapevtga kirishingiz mumkin".*

2) *Sovet davrining "muomalasi sovuq shifokorlari": "Agar spravka kerak bo'lsa, nachalnikdan razresheniye oling".*

3) *Ma'muriy ishchilar yoki navbatchi ayollar: "Siz bu yerda yotgan bemor emassiz, ichkariga kirish zapresheno!"*

Registatura- ro'yxatga olish joyi

Talonchik - qozg'ozli navbat raqami

Terapevt - ichki kasalliklar shifokori

Spravka - ma'lumotnoma

Nachalnik - boshliq

Razresheniye - ruxsat

Bu uslub orqali yozuvchi sovet byurokratiyasini tanqid qiladi.

Bunga qo'shimcha tarzda Said Ahmadning "Ufq" trilogiyasidan parchani yana bir misol qilsak bo'ladi:

1) *Zavod boshliqlari, muhandislar, rahbarlar: "Plan bajarilmasa nachalstvovan nakazaniye keladi".*

2) *Mehnat muhitida ruscha terminlarga o'rganib qolgan ishchilar: "Obyomni oshirmasak, srok yetmaydi".*

3) *Partiya vakillari yoki komissiya a'zolari: "Bu bo'yicha prikaz chiqadi, grafikni qayta ko'rib chiqing".*

Plan - reja

Nachalstvo - rahbariyat

Nakazaniye - jazolash

Srok - muddat

Obyom - hajm

Grafik - jadval

Prikaz - buyruq

Birgina mazkur parchalardan ham tilimizning qanday ahvolga tushib qolganligi haqida muayyan tasavvur uyg'otadi. Bu kabi nutqiy kamchiliklar mavjud ekan, ularni bartaraf etish nutqimiz madaniyatiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi muammo sifatida kun tartibidagi eng muhim vazifalaridan bo'lib qolaveradi. Ma'lumki, qadimgi davrlardayoq tilga insonning xulqi, madaniyatini ko'rsatuvchi belgi sifatida qaraganlar. Inson faoliyatining hamma qirralari til bilan bevosita bog'liq bo'lganligi uchun til birgina aloqa qilish vositasigina emas, balki odob, axloq ziynati ham hisoblangan. Ajdodlarimizning nutq odobi to'g'risidagi falsafiy mushohadalari asrdan asrga o'tib puxtalanib, silliqlasha borgan, tildan foydalanib, o'z fikrlarini jozibador, go'zal tarzda ifodalash maxsus san'at darajasiga ko'tarilgan. Shuning uchun Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'atit turk" asarida "Erdam boshi til", ya'ni "Odobning boshi tildir", deyilishi ham bejiz emas. Menimcha, nutqiy ko'nikma dastlab hosil bo'ladigan joy, ya'ni oilaga dastlabki e'tiborni qaratish lozim. Bunda ,avvalo, oila a'zolaridan o'z nutqlarida adabiy til me'yorlariga qat'iy amal qilishlari, boshqa tillarga oid til birliklarini keraksiz holda qo'llamaslik, turli haqoratli so'zlardan qochish talab etiladi.

Kishining nutqi to'la shakllanib ulguradigan ikkinchi bosqich maktab ekanligini hisobga oladigan bo'lsak, o'qituvchilik kasbining juda ma'suliyatli ekanligi seziladi. Bu davrda o'quvchi o'zbek tilining qonun -qoidalari bilan yaqindan tanishadi, adabiy til me'yorlari, milliy til va shevalar, ular orasidagi farqlarni o'rganadi, badiiy adabiyot bilan yaqindan tanishadi. Bu davrda o'qituvchining zimmasiga katta vazifa yuklanib, avvalo, uning o'zi nutq madaniyatini egallagan bo'lishi lozim. To'g'ri nutq qoidalarini yaxshi o'rganib olgan o'quvchining savodxonlik darajasi ham, nutqining rivojlanishi ham yaxshi bo'ladi. Ayniqsa, nutq o'stirishga qaratilgan tadbirlar, badiiy kechalarning tashkil qilinishi o'quvchini notiqlikning dastlabki bosqichlarini egallashiga ko'maklashadi. Ma'lumki, nutq madaniyati bevosita notiqlik bilan chambarchas bog'liq. Insoniyat azal-azaldan o'z fikrlarini tinglovchi yoki o'quvchiga yetkazishda ifodali va ta'sirchan so'z va jummalardan foydalanishga intilib keladi. Davrlar o'tishi bilan tildan foydalanish san'at darajasiga ko'tarildi va bu san'atning yorqin ko'rinishi bo'lgan notiqlik yuzaga keldi. Juda qadim zamonlarda ham notiqlik mahorati qadrlangan. Xususan, eramizdan avval 106-43-yillarda yashagan Sitseron o'zining yuksak notiqlik mahorati bilan tarixda qolgan. Uning "Davlat haqida", "Notiqlik haqida", "Qonunlar haqida" kitoblari hozirda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. "Notiqning vazifasi u yoki bu faktlarni keltirishgina emas, balki ular vositasida tinglovchilarda kuchli his-tuyg'ularni uyg'otish, barcha tinglovchilarni shunga safarbar etishdir", deb yozgan edi u. Omma oldida so'zga chiqqanda nutq madaniyatiga alohida e'tibor berish zarur. Til softligiga

e'tibor berish, ya'ni nutq so'zlaganda xorijiy tildagi so'zlarni qo'shmasdan gapirish nutq madaniyatining asosiy belgilaridan biridir. Nutq madaniyati notiqning oldiga ham muayyan talablar qo'yadi: notiq nutqini boshlashdan oldin tinglovchilar bilan sammiy salomlashishi, nutq mavzusiga oid savollarga qisqa va aniq javob berishi, bilmaganlariga uzr so'rashi, nutq mavzusi va o'z vakolati doirasiga kirmaydigan savollarga javob bermasligi, tinglovchilar nafsoniyatiga tegmasligi, turli noo'rin xatti-harakatlarga yo'l qo'ymasligi lozim. Notiq o'ziga ishongan va ommani ham ishontira oladigan darajada tayyorgarlikka ega bo'lishi lozim. Bu uchun tirishqoqlik va doimo o'z mahoratini o'stirishga intilishi va o'z ustida muntazam ishlashi kerak.

Xulosa qilib aytganda, nutq madaniyati har bir fuqaro, ayniqsa, ziyoli va siyosatchi uchun o'ta muhim masalalardan biridir. O'zbek tilimiz shevaga boy til, ammo biz omma oldida chiqish qilganimizda, televidenye yoki teleradio kanallarida intervyu berganimizda til me'yorlariga va so'zlashuv madaniyatiga rioya qilgan holda fikrimizni bayon qilishimiz zarur. Turli shevaga oid so'zlardan qochish, adabiy tilda gapirish uchun esa o'z ustimizda tinimsiz ishlashimiz maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki til bu - oliy qadriyat, uni asrab-avaylash, jamiyatda til madaniyatini rivojlantirish barchamizning sharafligi vazifalarimizdandir. Zero, "Tilga - ixtiyorsiz, elga - e'tiborsiz".

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Samarqand davlat tibbiyot instituti, Nutq madaniyati o'quv qo'llanmasi Jo'rayev.T.T, Halimov . S.G'. (Samarqand TIBBIYOT KO'ZGUSI 2021)
2. "TARAQQIYOT" ilmiy-amaliy, ma'naviy-ma'rifiy jurnali (02.2024), "Notiqlik san'ati" Jaloliddin Safoyev: O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi
3. "Nutq madaniyati va o'zbek tilshunosligining dolzarb muammolari" mavzusidagi ilmiy-amaliy konferensiya materiallari (2020-yil 4-may).
4. Aliqulov Z. Sotsiumlar nutqining sotsial tabaqalanishi haqida \\\ Til taraqqiyotining derivatsion qonuniyatlari \\\ Respublika ilmiy-nazariy konferentsiyasi materiallari. Samarqand: SamDChTI nashri, 2009.-B.77.
5. O'tkir Hoshimov "Ikki eshik orasi" romani.
6. Said Ahmad "Ufq" trilogiyasi.